

ENAXON SIDDIQOVA SHERLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI (STILISTIK FIGURA TAKROR VA UNING TURLARI MISOLIDA)

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-
bosqich magistranti*

Abduraximova Dilafruz

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Dilnavoz Abdurahimova

Annotatsiya: Maqolada lingvopoetikaning o'rganish obyektlaridan biri bo'lgan badiiy aktuallashtirilgan leksik vositalarning badiiy asar emotsional ekspressivligini ta'minlashdagi ahamiyati xususidagi fikrlar bayon qilingan. Badiiy matn lingvopoetik tahlil qilinganda badiiy aktuallashtirilgan leksik vosita ya'ni badiiy takrordan iborat mantiqiy tushunchalar yotadi. Maqolada ushbu tushunchalar Enaxon Siddiqova she'rlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, takror, parallelizm, anafora, struktural, epifora infora, stilistika.

ЛИНВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТИХОТВОРЕНИЙ ЭНАХОН СИДДИКОВОЙ (СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ФИГУРА НА ПРИМЕРЕ ПОВТОРА И ЕГО ВИДОВ)

Аннотация: В статье раскрывается значение художественно актуализированных лексических средств, являющихся одним из объектов изучения лингвопоэтики, в обеспечении эмоциональной выразительности художественного произведения. При лингвопоэтическом анализе художественного текста лгут лексические средства художественной актуализации, т. е. логические понятия, состоящие из художественного повторения. В статье эти концепты анализируются на примере стихотворений Энахон Сиддиковой.

Ключевые слова: лингвопоэтика, повтор, параллелизм, анафора, структура, эпифора, инфора, стилестика.

LINGVOPOETIC ANALYSIS OF ENAKHON SIDDIKOVA'S POEMS (STYLISTIC FIGURE AS AN EXAMPLE OF REPETITION AND ITS TYPES)

Annotation: The article describes the importance of artistically actualized lexical tools, which are one of the objects of study of linguopoetics, in ensuring the emotional expressiveness of an artistic work. When a literary text is analyzed linguopoetically, the lexical means of artistic actualization, i.e., logical concepts consisting of artistic repetition, lie. In the article, these concepts are analyzed on the example of Enakhon Siddikova's poems.

Key words: *linguopoetics, repetition, parallelism, anaphora, structural, epiphora, infora, stylistics.*

Keyingi yillarda badiiy asar tilini lingvopoetik o'rganish ko'pgina ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Negaki til va adabiyot hamisha bir-birini to'ldirib, uyg'unlikda taraqqiy etib kelgan. Shu bois bunday tadqiqotlar asosida tilshunoslarimiz tomonidan badiiy matnni til va adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etishda qo'llaniladigan usullar ishlab chiqilmoqda. Xususan, badiiy matn lingvistik tadqiqida so'zning estetik ta'siri, ma'no va mazmun uyg'unligi, lingvopoetik tahlil olib borishda muallifning individual uslubi, badiiy adabiyot tilining vujudga kelishida poetikaning alohida o'rin tutishi, undagi til obrazlilik ko'lamini, nutqiy tantanavorligi bilan nasr tilidan farqlanishi, poetika leksik-stilistik jihatidan badiiy uslubning ajralib turuvchi turi ekanligi, bu janrga xos xususiyatlar uning o'ziga xos leksikasida - boshqa janrlarda kam qo'llaniladigan so'z va so'z shakllarda namoyon bo'lishi B.Umrqulovning ilmiy asarlarida mufassal o'rganilgan. Ta'kidlashimiz joizki, badiiy asar tilini o'rganish bo'yicha tilshunoslikda talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarning negizida har bir adibning badiiy asar yaratishdagi o'ziga xos uslubi, so'z qo'llash mahorati, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish imkoniyatlari va shular asosida har qanday tilning boyligi, go'zalligini ochib berish kabi maqsad yotadi.¹⁰

Har qanday badiiy matn asosida so'z va shu so'zlarning mantiqiy birlashishi natijasida hosil bo'lgan sodda va murakkab tuzilishga ega sintaktik birliklar yotar ekan, ushbu axborotimizda O'zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqova she'riyati misolida so'zning badiiy asar qimmatini oshirishdagi muhim jihatlari xususida to'xtalmoqchimiz. Matnning mohiyati va estetik vazifasi, badiiy matn estetik ta'sirini oshiruvchi badiiy aktuallashtirilgan leksik vositalarning tahlili kabi masalalarga alohida to'xtalish lozim. Shu sababli ham "lingvopoetika" deb ataluvchi matn lingvistikasining mustaqil sohasi tadqiqotchilar e'tiborini ko'proq tortmoqda. Rus tilshunos olimi V.V.Vinogradovning fikricha, lingvopoetikaning vazifasi badiiy asarda til birliklarining estetik vazifasini tadqiq etishdan iborat. Shunday qilib, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida filologiyaning yangi yo'nalishi, lingvopoetika, ya'ni yozuvchi yoki shoir badiiy to'qimalarining estetik ta'sirini til vositalari yordamida ifodalash imkoniyatlarini ochib beruvchi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning uyg'unlikdagi yo'nalishi paydo bo'ldi, deb hisoblaydi olim.¹¹

Enaxon Siddiqova o'ziga xos so'z qo'llash uslubiga ega bo'lgan shoirlardan biri. Uning she'rlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlarning ijod namunalaridan ajralib turadi. Shoir ijodidagi o'ziga xoslikni ta'minlashda badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning asosiy tamoyillari sifatida keltiriladigan badiiy aktuallashtirilgan leksik vositalar, xususan, badiiy takror, ko'chimning metafora, metonimiya, sinekdoxa, jonlantirish kabi

¹⁰Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001

¹¹Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, Fan - 2GG7.

ma'no turlari alohida ahamiyatga ega. Bunday birliklar badiiy asarning emotsional ekspressivligini ta'minlovchi tasviriy vositalardan hisoblanadi. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. Enaxon Siddiqova she'riyatida struktural figuralarning biri bo'lgan parallelizmni qo'llash holatlari ko'p uchraydi. Parallelizm shakl va mazmun jihatdan bir-birini takrorlayotgan ikki yoki undan ortiq hodisa, holat yoxud narsaning yonma-yon qo'yilishi orqali fikrni poetik ifodalash usulidir. Bnda yonma-yon kelayotgan hodisa, holat, narsa o'zaro qiyoslanishi, bir-biriga o'xshatilishi yoki qarama-qarshi qo'yilishi mumkin.¹² Parallelizmlarni dastlab ikki katta turga ajratish mumkin:

1. Struktural parallelizm.

2. Semantik parallelizm.

Jumladan,

Yurakchamni og'ritgan,

Hayron muhabbatimni,

Osmon muhabbatimni,

Jayron muhabbatimni,

Sarson muhabbatimni

So'ramasman men sendan,

So'ramasman men sendan. Ushbu she'rda dastlabki to'rt misrada so'z birikmasi takrorlangan bo'lsa, keyingi ikki misrada sodda gaplar aynan takrorlangan. Bu esa she'rning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. She'r semantikasida ta'kid ma'nosini yuklagan. Shoiraning "Umr-yaxshilikka safar bo'lsaydi" she'rida ham ayni shu holatni uchratish mumkin.

Jondan bir tomchidir har kun, har oning,

Yo'q, ishqqa qamchidir har kun, har oning,

Baxt tilar romchidir har kun, har oning,

Mehr qudug'ini qazar degani. Ushbu misralar oxirida har kun, har oning uyushiq egalar takrorlanib kelmoqda. Inversiya yuz berib, so'zlarning misra so'ngida takrorlangani uchun bu hodisa tilshunoslikda epifora deyiladi. Albatta, shoira ushbu lingvistik hodialar orqali ma'lum bir badiiy maqsadni ko'zlagan.

Anafora deganda, so'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. Ushbu hodisa shoira she'riyatida ham talaygina.

Bu bevafo dunyoda,

Gunohsiz begunohim.

Yashadilar betama

Yashadilar hokisor. Yoki

Nechuk iching to'la dod,

¹². Dustmatov H, Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari. Farg'ona, 2022

Nechuk bo'g'zingda faryod?!

Sen ham mendek g'amlarda

Qovrildingmi anorim?!

Har ikki she'rda anafora hodisasi kuzatilgan. Dastlabki she'rda fe'l so'z turkumiga oid so'z takrorlangan bo'lsa, keyingisida esa olmosh takrorlangan. Enaxon Siddiqova she'riyatida fe'lning misralar boshida takrorlanishi juda ko'p uchraydi. Shu bilan birga misralar o'rtasidagi so'z takrori infora hisoblanadi quyidagi she'rda ushbu badiiy aktuallashgan leksik vositadan foydalanilgan.

Hayotning shoh libosin,

Yechib ketdimi, onam?

Farishtadek arshlarga

Uchib ketdimi, onam?¹³ She'rning davomida ham ushbu holat kuzatilgan. Bu esa she'rning badiiyatini, emotsional-ekspressivligini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, badiiy matnning lingvopetik tahlili shu tilning poetik imkoniyatlarini ochishga, muallif tomonidan til xazinasidagi mavjud til boyliklaridan foydalanish mahoratiga baho berishga xizmat qiladi. Enaxon Siddiqova she'riyatini lingvopoetik jihatdan tahlil qilinishi, xususan, uning badiiy aktuallashgan leksik qoliplardan foydalanish mahorati o'ziga xos ekanligi shoirning original uslubni yarata olganligidan dalolatdir. Badiiy aktuallashgan leksik vositalar badiiy asar tilini boyitishda, ifodaning obrazlilikini ta'minlashda, ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi shoirning ijod namunalarida o'z aksini topgan. Enaxon Siddiqova she'rlarining o'quvchi qalbidan chuqur o'rin olishi, uning ruhiyatiga, hissiyotiga kuchli ta'sir qilishining sababi ham mana shunda. Demak, Enaxon Siddiqova she'riyatining lingvopoetik tahlil qilinishi o'zbek adabiy tilining, jumladan, o'zbek poetik nutqining o'ziga xos jihatlarini, betakror imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa o'z o'rnida o'zbek tilidagi badiiy matnlarning betakror imkoniyatlarining ochib berilishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Siddiqova E. Ona haqida qo'shiq. Toshkent, Akademnashr, 2018.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, Fan - 2GG7.
3. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. TDPU, 2001.
4. Dustmatov H, Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari. Farg'ona, 2022

¹³ Siddiqova E. Ona haqida qo'shiq. Toshkent, Akademnashr, 2018.